XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-029-3-52-K/24 Paxtakor tumani

Paxtakor tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 26 dekabrdagi 01-20-08-02-39/195-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Paxtakor tumani mahalliy byudjetining 2025 yilgi daromadlari **80 012 669,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **80 012 669,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Paxtakor tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **398 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, 2025 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetidan 2025 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman byudjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **1 058 173,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek,

ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **Sh.Shodmonov**, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining moliya va byudjet masalalari bo‘yicha o‘rinbosari **(M.G‘aniev)**, tuman soliq inspeksiyasi **(B.Nurmurodov)** bilan birgalikda 2025 yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Qurbonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Nurmurodov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘aniev) bilan birgalikda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni “Paxtakor hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi **(Z.Jumaboev)** hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **Sh.Shodmonov** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Paxtakor tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming. so‘mda

T/r	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**109 616 169**	**80 012 669**
1	Foyda solig‘i	3589000	1 770 500
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6718000	6 718 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36541000	36 541 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	883000	883 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	11400000	
6	**Aksiz solig‘i, shundan:**	5140000	5140000
6,1	Alkagol mahsulotlari (pivadan tashqari)	0	0
6,2	Pivo	0	0
6,3	Benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish	5140000	5140000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2657000	2657000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	4357620	4357620
9	yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10229000	10229000
10	jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6306549	6306549
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8709000	5374000
13	Davlat boji	3870000	
14	Jarima	8140000	
15	Yig‘imlar	1040000	
16	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	36000	36000
17	Yig‘imlar	0	0

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

T/r	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
2.	Foyda solig‘i	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	50%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	50%
3.	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4.	Pivo	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5.	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10.	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%

			HST	0%
11.	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12.	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13.	**Jarima**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14.	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15.	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16.	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat budjetlariga ajratma qilinadi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Jizzax viloyati Paxtakor tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

Ming so‘m

T/r	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**80 012 669,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	22 266 734,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 143 553,0
2	Tibbiyot birlashmasi	0,0
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0,0*
3	Madaniyat bo‘limi	4 070 406,0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	2 301 609,0
5	Sport bo‘limi	4 980 099,0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 544 247,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 496 419,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	679 453,0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	1 951 445,0
10	tuman soliq inspeksiyasi	0,0
11	Hokimiyat	25 490 267,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*71 449,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*16 984,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*18 087 287,0*
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*1 006 049,0*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 058 173,0*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	840 794,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*198 100,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*642 694,0*
13	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	13 391 196,0
14	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Paxtakor tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming. so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Paxtakor tumani	80 012 669,0	80 012 669,0	0,0	80 012 669,0

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Paxtakor tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Paxtakor tumani	**398 000,0**

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming.so‘mda)
1	“Bog‘ishamol” MFY	1,00	54 252,0
2	“Buyuk ipak yo‘li” MFY	0,90	48 826,8
3	“G‘alaba” MFY	1,10	59 677,2
4	“Dilorom” MFY	1,10	59 677,2
5	“Do‘stlik” MFY	1,20	65 102,4
6	“Mingchinor” MFY	0,90	48 826,8
7	“Nurli Pangat” MFY	0,90	48 826,8
8	“Oqbuloq” MFY	1,00	54 252,0
9	“Olmazor” MFY	1,00	54 252,0
10	“Oltinko‘l” MFY	1,10	59 677,2
11	“Paxtakor” MFY	1,10	59 677,2
12	“Samarqand” MFY	1,10	59 677,2
13	“Suvonobod” MFY	1,10	59 677,2
14	“Toshkent” MFY	1,10	59 677,2
15	“Chamanzor” MFY	0,90	48 826,8

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-3-52-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	“Bog‘ishamol” MFY	0,95	374,53
2	“Buyuk ipak yo‘li” MFY	0,80	315,39
3	“G‘alaba” MFY	1,06	417,89
4	“Dilorom” MFY	1,06	417,89
5	“Do‘stlik” MFY	1,06	417,89
6	“Mingchinor” MFY	0,80	315,39
7	“Nurli Pangat” MFY	0,95	374,53
8	“Oqbuloq” MFY	1,03	406,07
9	“Olmazor” MFY	1,03	406,07
10	“Oltinko‘l” MFY	1,03	403,07
11	“Paxtakor” MFY	1,03	406,07
12	“Samarqand” MFY	1,06	417,89
13	“Suvonobod” MFY	1,06	417,89
14	“Toshkent” MFY	1,06	417,89
15	“Chamanzor” MFY	1,03	406,07